

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**HAMRAYEVA DILOVAR AXADOVNA**

**YUQORI MANZARALI BUTALARNING TOSHKENT BOTANIKA  
BOG‘I SHAROITIDA INTRODUKSIYASI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Hamrayeva Dilovar Axadovna**

Yuqori manzarali butalarning Toshkent Botanika bog‘i sharoitida  
introduksiyasi..... 3

**Хамраева Диловар Ахадовна**

Интродукция высокодекоративных кустарников в условиях  
Ташкентского Ботанического сада..... 21

**Khamraeva Dilovar Akhadovna**

Introduction of highly decorative shrubs in the conditions of the Tashkent  
Botanical Garden..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 43

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**HAMRAYEVA DILOVAR AXADOVNA**

**YUQORI MANZARALI BUTALARNING TOSHKENT BOTANIKA BOG‘I  
SHAROITIDA INTRODUKSIYASI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B975 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.botany.uz](http://www.botany.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Temirov Eldor Ergashboyevich**  
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Raximova Tashxanim**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yoziyev Lutfulla Xabibullayevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7-mart" kuni soat 13<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: [botany@academy.uz](mailto:botany@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy.  
Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20-fevral" kuni tarqatildi.  
(2025-yil "20-fevral" yanvar 6-raqamli reyestr bayonnomasi).



**K.Sh. Tojibayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d., akademik

**U.H. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, PhD,  
katta ilmiy xodim

**X.F. Shomurodov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida aholi sonining ortishi, o'z navbatida, aholi yashash hududlarining kengayishi, shaharsozlik qonuniyatlariga mos ravishda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini keng yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Shu bois, shaharning tutunli, shovqinli, quruq, sovuq va yuqori haroratli sharoitlariga biologik chidamli hisoblangan yuqori manzarali butalar assortimenti alohida ahamiyatga egadir. Yuqori manzarali bo'lgan butalarning tashqi muhit omillariga chidamliligini aniqlash, manzaraliligi bo'yicha va introduksion baholash hamda turli sharoitlarda vegetativ ko'paytirish usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda aholi yashash hududlarini ko'kalamzorlashtirish, yashil hududlarni kengaytirishda shahar sharoitlariga chidamli hisoblangan istiqbolli yuqori manzarali daraxt-butalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada o'simliklarning istiqbolli manzarali yangi shakllarini yaratish, ularning ko'kalamzorlashtirishda chidamliligi, yuqori manzaraliligi, dorivorliligi, tashqi muhit omillariga chidamliligini o'rgangan holda turli iqlim sharoitlarida bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda respublikamizda ko'kalamzorlashtirishda yuqori manzarali bo'lgan o'simliklarning manzarali formalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Adoxaceae, Caprifoliaceae, Hydrangeaceae, Malvaceae, Rosaceae kabi oilalari vakillarining manzarali tur va formalari yurtimizga introduksiya qilinib, ularning o'sishi va rivojlanishi, tashqi muhit omillaridan qurg'oqchilikka, issiqqa, sovuqqa chidamliligini o'rganish, ko'paytirish va yetishtirishda samarali usullarni ishlab chiqish, introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlarini o'rganish, manzaralilik xususiyatlarini baholash, kasallik va zararkunandalarga chidamliligini aniqlash yuzasidan muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishildi. Ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlariga ham yurtimizda katta e'tibor berilmoqda. Xususan, istiqbolli o'simliklar assortimentini kengaytirish orqali biologik xilma-xillikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish” bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada respublikamizga iqlimlashtirilgan Adoxaceae, Caprifoliaceae, Hydrangeaceae, Malvaceae, Rosaceae oilalariga mansub manzarali tur va formalarning introduksiyasi, ularga tashqi muhit omillarining ta'siri, viloyatlar kesimida foydalanish istiqbollari, turli tuproq-iqlim sharoitlariga chidamliligi hamda standart ko'chatlarini ko'paytirish va yetishtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-sentyabrdagi PQ-3262-son “Avtomobil yo'llarining

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni

arxitektura-landshaft konstruksiyasi va obodonlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 17-iyuldagi PQ-3861-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, 2019-yil 4-iyundagi PQ-4351-son "Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son "Yashil makon" umummilliy dasturi, 2023-yil 23-noyabrda PF-199-son "Yashil makon" umummilliy dasturini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'rganilgan tur va formalarning tarqalishi, introduksiyasi, morfologiyasi, ko'paytirish bo'yicha bir qator xorijlik olimlar: J.B. Phipps et al. (1990), J.H. Edward (1990), P. Fan et al. (2011), Y. Zhang et al. (2018), M. Shabanzadeh et al. (2022), A. Francini et al. (2023) tadqiqot ishlarini olib borishgan. MDH malakatlarida Z.I. Luchnik (1970), A.T. Grevsova (1997), S.V. Barishnikova (2003), A.N. Seplyaev (2007), M.S. Aleksandrova (2009), M.V. Avramenko (2009), V.I. Malyarovskaya va Yu.N. Karpun (2012), A.V. Savenko va S.S. Chukuridi (2015), O.A. Zemlyanuxina (2016), L.G. Martinov (2016), Ye.N. Dunaeva va b. (2016), A.S. Mityakov va T.N. Shakina (2016), F.K. Murzabulatova va N.V. Polyakova (2016, 2017), R.S. Nazirov (2020)lar tomonidan o'rganilgan oilalar manzarali vakillarining o'sishi-rivojlanishi, morfologiyasi, ko'paytirish va yetishtirish, gullash biologiyasi, introduksiya natijalari o'rganilib, ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Respublikamizda oila vakillarining O'zbekiston sharoitida ko'paytirish to'g'risidagi ma'lumotlar Yu.L. Karpenko (1970), G.V. Talalayev (1996), N.R. Raxmatova (2018), Sh.A. Xolova va K.S. Safarov (2019), D.U. Ishankulova va b. (2020, 2021)lar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar tur va formalarni Respublikamiz sharoitida keng miqyosda yetishtirish imkonini bermaydi. Shu boisdan, Respublikamizning turli hududlarida introduksiya sharoitida ushbu tur va formalarning mavsum davomida o'sishi va rivojlanishini o'rganish, ko'paytirish va yetishtirish usullarini ishlab chiqish hamda ko'kalamzorlashtirishga tavsiyalar berish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog'i Dendrologiya laboratoriyasining 2021-2025-yy. ga mo'ljallangan "Dendrologiya laboratoriyasi ekspozitsiyalaridagi daraxt va butalarning raqamli bazasini

shakllantirish, yangi turdagi daraxt va butalarni introduksiya qilish” mavzusidagi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy assortimentdagi yuqori manzarali butalarning introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlari hamda ko‘paytirish usullarini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tur va formalarni introduksiya qilish, birlamchi introduksion sinovdan o‘tkazish, manzaraliligini baholash hamda yanada istiqbolli o‘simliklarni ajratib olish;

tadqiqot obyektlarini vegetativ ko‘paytirishning optimal muddatlarini aniqlash hamda samarali stimulyatorlarning ta‘sirini o‘rganish;

*ex-situ* sharoitida yuqori manzarali butalarning o‘sishi va rivojlanishi hamda ularga ekologik omillarning ta‘sirini o‘rganish;

o‘simliklarning sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasini o‘rganish;

tadqiqot obyektlarini introduksion va manzaraliligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** Adoxaceae, Caprifoliaceae, Hydrangeaceae, Malvaceae va Rosaceae oilalariga mansub 9 ta turkumdan iborat 6 ta tur (*Cotoneaster adpressus* Bois., *Cotoneaster horizontalis* Decne., *Cotoneaster dammeri* C.K. Schneid., *Spiraea japonica* L., *Hydrangea macrophylla* (Thunb.) Ser., *Symphoricarpos dorenbosii* Krüssm.) hamda 6 ta formalar (*Viburnum tinus* f. *Stricta*, *Weigela florida* f. *Bristol ruby*, *Deutzia scabra* f. *Plena*, *Hibiscus syriacus* f. *Duc de Brabant*, *Spiraea prunifolia* f. *Plena*, *Physocarpus opulifolius* f. *Diabolo*) hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** manzarali butalarning introduksiyasi, biologiyasi va ekologiyasi, rizogenezlik qobiliyati, manzaraliligini hamda introduksiyasini baholash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada dala tajribalari, fenologik, biometrik, vegetativ ko‘paytirish, introduksion baholash va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ilk bor turli oilalarga mansub zamonaviy assortimentdagi yangi manzarali butalarning introduksiya sharoitida gullash dinamikasi o‘rganilgan;

tanlab olingan tur va formalarning o‘sishi va rivojlanishiga tashqi muhit omillarining ta‘siri aniqlangan;

6 tur va 6 ta formalardan iborat butalarning manzaralilik darajasi baholanishi asosida Respublikamizni ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalanishga tavsiya etilgan;

ilk bor yangi 8 ta tur va 14 ta formalar kompleks tahlil qilinib, ulardan qurg‘oqchilikka, issiqlik, sovuqqa, kasallik va zararkunandalarga chidamli hisoblangan 6 tur va 6 formalar ajratib olinib, moslashish xususiyatlarini o‘rganish natijalari asosida introduksion baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot obyektlarini turli xil sharoitlarda hamda usullarda vegetativ ko‘paytirishning optimal muddatlari ishlab chiqilgan;

tanlangan assortimentlarni vegetativ ko'paytirish orqali yetishtirilgan standart ko'chatlaridan Respublikamiz sharoitida 3-4-yillardan boshlab ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanish mumkinligi isbotlangan;

manzarali tur va formalarni vegetativ usulda samarali ko'paytirish orqali ko'kalamzorlashtirishda foydalanish uchun o'simliklarning 3000 dan ortiq ko'chatlari yetishtirilgan;

tadqiqot obyektlari hisoblangan yangi tur va formalarni Botanika bog'iga introduksiya qilish orqali bog'ning genofondini boyitish imkonini bergan hamda manzarali o'simliklar sifatida ekib foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ko'p yillik dala tadqiqotlari davomida olingan amaliy natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, statistik tahlil qilinganligi, zamonaviy usullardan foydalanilganligi, natijalarning ishlab chiqarishda qo'llanilganligi, OAK tavsiya etgan yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi hamda tadqiqot ilmiy natijalarining nufuzli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ilk bor manzarali butalarning yangi tur va formalarining introduksiya sharoitida o'sishi va rivojlanishi, gullash dinamikasi, o'simliklarga ekologik omillarning ta'siri aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Olingan natijalar manzarali butalarni introduksiya qilish, vegetativ usulda jadal ko'paytirishning optimal muddatlari va samarali stimulyatorlarni aniqlash hamda ko'kalamzorlashtirish va landshaft dizaynida keng foydalanilishi va "*Yashil makon*" umummilliy loyihasi doirasida foydalanilayotgan o'simliklar assortimentining boyitilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yuqori manzarali butalarning Toshkent Botanika bog'ida introduksiyasi va ko'paytirish agrotexnikasi hamda gullash dinamikasi bo'yicha tadqiq qilishdan olingan natijalar asosida:

Botanika bog'i uchun yangi hisoblangan yuqori manzarali tur va formalar introduksiya qilinib, kolleksiyasi yaratilgan hamda tur va formalar ko'paytirish va yetishtirish uchun ishlab chiqarish ko'chatxonasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 21-iyuldagi 4/1255-1537-son ma'lumotnomasi). Natijada Toshkent Botanika bog'i genofondini yangi yuqori manzarali tur va formalar bilan boyitish imkonini bergan;

tanlab olingan yuqori manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi hamda morfologik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlar Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (Toshkent shahar Obodonlashtirish bosh boshqarmasining 2023-yil 12-dekabrda 1-13/2961-son ma'lumotnomasi). Natijada Toshkent shahridagi yashil hududlar uchun assortimentlar xilma-xilligini boyitish hamda ulardan keng foydalanish imkonini bergan;

yuqori manzarali o'simliklarni turli stimulyatorlarda tezkor yetishtirish usullari Toshkent Davlat o'rmon xo'jaligi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2023-yil 19-dekabrda 03-03/3-8275-son ma'lumotnomasi). Natijada

Respublikamizning “*Yashil makon*” umummilliy loyihasi doirasida ilmiy loyihalar va biologik tadqiqotlar olib borish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Manzarali butalar assortimentining o‘rganilganlik holati, tadqiqot obyektlari va metodlari**” nomli birinchi bobning birinchi bo‘limida manzarali butalarning o‘rganilish tarixi, zamonaviy tadqiqotlar tahlili, manzarali o‘simliklar introduksiyasi bo‘yicha xorijda va O‘zbekistonda olib borilgan va amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

Jumladan, MDH mamlakatlarida shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishda manzarali daraxt va butalar introduksiyasi va iqlimlashtirilishi bir qator olimlar: A.L. Lipa (1951; 1953), A.Ya. Lyubavskaya (1983), R.I. Loskutov (1991), R.N. Matveyeva (1998), P.M. Malaxovets, I. Tisova (2000; 2002), V.I. Malyarovskaya, (2006), O.S. Zalevskaya (2014), Ye.V. Gorodnyaya (2019), N.A. Kolyada (2019) va boshq. tomonidan o‘rganilgan. Respublikamizda manzarali daraxt va butalar introduksiyasi hamda biologiyasini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan yirik olimlardan F.N. Rusanov (1950), G.P. Ozolin (1950,1962), A.U. Usmonov (1974), N.T. Slavkina (1978), N.F. Rusanov (1993), L.H. Yoziyev (2001), N.I. Shtonda (2013) va boshqalar tomonidan ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning ikkinchi bo‘limida hududning iqlim va tuproq sharoitlari, yog‘ingarchilik miqdori, havo harorati, havoning nisbiy namligi, tuproq harorati, uning tarkibi va tadqiqot obyektlari hamda metodlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu bo‘limda Toshkent Botanika bog‘iga yangi 8 ta tur va 14 ta formalar introduksiya qilinganligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, dastlabki ikki yillik moslashish xususiyatlari va manzaralilik belgilariga ko‘ra istiqbolli hisoblangan 6 ta tur hamda 6 ta formalar ajratib olingan.


Dissertatsiyaning “**Manzarali butalarning zamonaviy assortimentini vegetativ usulda ko‘paytirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida introduksiya qilingan manzarali butalarning yashil va yog‘ochlashgan qalamchalari orqali vegetativ ko‘paytirish hamda samarali stimulyatorlar ta‘siri haqida ma‘lumotlar berilgan. O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitida yog‘ochlashgan va yashil qalamchalari bilan ko‘paytirish texnologiyasi ilmiy asoslangan.

Ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladigan zamonaviy assortimentlar bugungi kunda, asosan, vegetativ usulda ko‘paytirilmoqda, bu ularning manzaralilik xususiyatlarini o‘zida saqlab qolish bilan birga qisqa fursatda standart ko‘chatlar olish imkonini beradi. Bobda o‘simliklarining fenofazalari bilan bog‘liq holda yog‘ochlashgan va yashil qalamchalar tayyorlashning optimal vaqtini aniqlashtirish va Toshkent Botanika bog‘i sharoitida ko‘paytirish texnologiyasining xususiyatlari o‘rganilgan. Manzarali o‘simliklarni vegetativ yo‘l bilan ko‘paytirishda X.T. Gartman, D.E. Kester (1963) uslubi bo‘yicha qalamchalar ertalab soat 6<sup>00</sup> dan 8<sup>00</sup> gacha o‘simlikning yashil novdalaridan 10-15 sm (o‘simlik turiga qarab o‘zgarishi mumkin) uzunlikda tayyorlandi. Har bir o‘simlik tur yoki formasiga ko‘rsatilgan yorliq qo‘yildi. Qalamchalar olishda pastki qismi kurtakdan 0,6-0,8 mm pastda, yuqori qismi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri kurtak ustidan amalga oshirildi. Ildiz olishni jadallashtiruvchi stimulyatorlar sifatida nazorat variantiga nisbatan kornevin, geteroauksindan foydalanildi (1-rasm).



**1-rasm.** Tur va formalarni yashil qalamchalari orqali ko‘paytirish


Yashil qalamchalar bilan ko‘paytirishda harorat, havo va substratning namligi, yorug‘lik rejimi katta ahamiyatga ega. Yashil qalamchalar regeneratsiya jarayonida poyaning to‘qimalaridan ildizlarni hosil qiladi. Novdalarning o‘sishi mavjud kurtaklarning rivojlanishi tufayli amalga oshiriladi (2-rasm).



**2-rasm.** O'simliklarni yashil qalamchalari orqali ko'paytirish (%)

Tadqiqot obyektlarini vegetativ ko'paytirishda kornevin stimulyatoridan foydalanilgan qalamchalarda ildiz olish ko'rsatkichlari 80-100% gacha, geteroauksinda 60-80%, nazorat variantlarda 40-60% gacha ekanligi kuzatildi. Natijalarga ko'ra, boshqa variantlarga nisbatan kornevin stimulyatori qo'llanilgan variant samarali ekanligi qayd etildi.


Bobning ikkinchi bo'limida manzarali butalarning yog'ochlashgan novdalarini ildiz oldirish usulida ko'paytirish ishlari batafsil yoritilgan. Yog'ochlashgan novdalardan olinadigan qalamchalarni o'simlikning tinim davrida, ya'ni kuz faslidan boshlab bahor fasli boshlangunga qadar tayyorlash mumkin. Qalamchalar stimulyatorlar bilan ishlanib (14-16 soat), issiqxona kompleksiga 15-20 sm qalinlikda toza daryo qumi solingan stellajga chuqurligi 4-6 sm, qator oralari 5x7 sm sxemada qo'yildi. Manzarali butalarni yog'ochlashgan qalamchalari orqali ko'paytirilib, 100% gacha ildiz olish ko'rsatkichiga erishildi, bunda kornevin stimulyatori samarali ekanligi qayd etildi (3-rasm).



**3-rasm.** O'simliklarni yog'ochlangan qalamchalari orqali

ko'paytirish (%)

Dissertatsiyaning “Manzarali butalarning introduksiya sharoitida ayrim bioekologik xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bobining manzarali butalarning “O'sishi, rivojlanishi va tashqi muhit omillariga munosabati” deb nomlangan birinchi bo'limda olib borilgan tadqiqotlar davomida tanlangan obyektlarning vegetatsiya davri davomida o'sishi, rivojlanishi, fazalar almashinishidagi kunlar va ular uchun zarur bo'lgan foydali haroratlar yig'indisi aniqlanib, tashqi muhit omillaridan havo harorati, nisbiy namligi va yorug'lik ta'siri o'rganilgan. Mazkur tur va formalarning hayotiy shakli buta hisoblanib, vegetatsiya davri uzoq kechadi (4-rasm).



4-rasm. Tadqiqot obyektlarining fenospektri (2022-2023-yy.)

Tadqiqot obyektlarining o'sishi, rivojlanishi va tashqi muhit omillariga munosabati turlichadir. Olib borilgan tadqiqotlar davomida Rosaceae oilasi *Cotoneaster* turkumi *Cotoneaster horizontalis*, *C. dammeri*, *C. adpressus* turlarida 2021-yilda vegetatsiya davri boshlanishi fevral oyining ikkinchi dekadasiga (1.02 +14 °C; 6.02 +20 °C; 12.02 +16 °C) to'g'ri keldi. Fevral oyining uchinchi dekadasida (25.02 -4-10 °C; 26.02 -2-10 °C) sovuqdan qisman zararlangan *Cotoneaster horizontalis* qisqa muddatda (9.03. 20 °C) qayta tiklandi. Buning uchun 10 kun vaqt va 135 °C foydali harorat yig'indisi kerak bo'ldi. Kurtaklarning uyg'onishidan (21.02-27.02) to ochilishigacha (3.03-7.03) bo'lgan vaqt 10-14 kunni tashkil etib, bu fenofazalar oralig'idagi foydali haroratlar yig'indisi +165 +251 °C ga teng bo'ldi. Qolgan ikki turda (*C. dammeri*, *C. adpressus*) sovuqdan zararlanish kuzatilmadi. Yangi novdalarning bo'yiga o'sishi 2022-2023-yillarda mart oyining ikkinchi dekadasidan (13.03) boshlab qayd etildi. May-iyun oylarida o'simliklarda faol o'sish kuzatilib, bu vaqtda ularning balandligi 15-25 sm gacha yetganligi, havoning o'rtacha harorati +34 +38 °C ga (2023), havoning nisbiy namligi 25-28% ga teng bo'lganligi qayd etildi. Iyul-avgust oylaridan boshlab esa o'simlikning o'sish jarayoni sekinlashdi va o'sishdan to'xtab, balandligi 25-30 sm ga yetdi.

Rosaceae oilasi *Spiraea* turkumi turlaridan *Spiraea japonica* va *S. prunifolia* f. *Plena* vegetatsiya davrini erta boshlab, kech tugatuvchi o'simliklar guruhiga kiradi. 2020-yilda ushbu manzarali tur va formada kurtaklarning bo'rtishi mart oyining ikkinchi dekadasidan (16.03) boshladi va bu bosqich 7 kun (23.03) davom etdi. Kurtaklarning ochilishi aprel oyining birinchi dekadasida (6.04), o'sishning boshlanishi esa ikkinchi dekadaga (17.04) to'g'ri kelganligi kuzatildi. O'sishning boshlanishida havoning o'rtacha harorati +22 °C, oylik o'rtacha harorat kunduzi +20 °C, kechasi +13 °C, havoning nisbiy namligi esa 60-65%ni tashkil etdi.


2023-yilda o'simliklarning o'sish davri mart oyining birinchi dekadasidan (7.03) boshlandi. O'sishdan g'unchalashgacha bo'lgan muddat 43 kunni, bu muddat uchun foydali haroratlar yig'indisi esa 862 °C ni tashkil etdi. Mart oyining birinchi dekadasidan boshlab sentyabr oyigacha bo'lgan vaqt oralig'ida butalarning o'sish va rivojlanishi kuzatildi. Jadal o'sish davri aprel oyining birinchi dekadasidan boshlanib, iyun oyining birinchi dekadasiga qadar davom etdi.

O'simlik vegetatsiyasini sentyabr oyida yakunlab, yillik o'sish davri o'rtacha 195-210 kunni tashkil etdi hamda mavsum uchun foydali haroratlar yig'indisi +5000 +5100 °C ga teng ekanligi aniqlandi. 2-4 yoshli o'simliklarda yillik o'sish 50-55 sm gacha ekanligi qayd etildi. Ushbu tur va forma quyoshli maydonlarda yaxshi o'sishi, vegetatsiya davrini erta boshlashi va o'zining manzaralilik xususiyatlarini to'liq saqlashi kuzatildi.

Adoxaceae oilasi vakili *Viburnum tinus* f. *Stricta* da 2021-yilda kurtaklarning bo'rtishi fevral oyining ikkinchi (16.02) dekadasida qayd etildi. O'sishning boshlanishi 2021-yilda aprel oyining ikkinchi dekadasidan (15.04) boshlanib, oktyabr oyining uchinchi dekadasiga (25.10) qadar, 2022-yilda esa mart oyining uchinchi dekadasidan (28.03) boshlanib, sentyabr oyining ikkinchi dekadasiga qadar (12.09) davom etganligi kuzatildi. O'sishning boshlanishi va

yakunlanishi 2021-yilda 193 kunning tashkil etdi. Foydali haroratlar yig'indisi 5800-5930 °C ni tashkil etganligi qayd etildi. 2022-yilda 169 kunning tashkil etib, foydali haroratlar yig'indisi 5000-5150 °C ga teng bo'lganligi qayd etildi.

2023-yilda kurtaklarning bo'rtishi fevral oyining uchinchi (23.02; 19 °C) dekadasida, kurtaklarning ochilishi mart oyining birinchi dekadasida (3.03) qayd etildi. Toshkent sh. A.Navoiy shoh ko'chasida kurtaklarning bo'rtishi, ya'ni vegetatsiya davri boshlanishi mart oyining birinchi dekadasida kuzatildi. Kurtaklarning bo'rtishidan kurtaklarning ochilishigacha bo'lgan muddat 7-10 kunning tashkil etdi. Bu vaqtda havoning o'rtacha harorati 17-19 °C, oylik o'rtacha harorat kunduzi +20 °C, kechasi +12 °C ga teng bo'lib, nisbiy namlik esa 60-70% ni tashkil etdi. Ushbu o'simlikda yangi novdalarining bo'yiga o'sishi mart oyining ikkinchi dekadasida (17.03.23) kuzatildi, bu vaqtda havoning o'rtacha harorati +18 +20 °C, nisbiy namlik esa 53-65% ni tashkil etdi (5-rasm).




### 5-rasm. Tadqiqot obyektlarining yillik o'sish ko'rsatkichlari (sm)

O'rganilgan introdutsentlarning mavsum davomida o'sish rivojlanishida asosiy ekologik omillar havoning, tuproqning nisbiy namligi hamda yorug'lik ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunda o'simliklarga mavsum davomida kerak bo'ladigan foydali haroratlar yig'indisi +4800 +6200 °C da ekanligi aniqlandi. Tadqiqot obyektlarining Toshkent shahrining turli hududlaridagi yillik novdalarining o'sish ko'rsatkichlari Botanika bog'iga nisbatan pastligi bog' sharoitida tuproqning unumdorligi hamda olib borilgan agrotexnik tabdirlar bilan izohlanadi.


Mazkur bobning "Manzarali butalarning gullash dinamikasi" deb nomlangan ikkinchi bo'limida manzarali butalarning sutkalik va mavsumiy gullash maromi batafsil yoritilib berilgan. Gullash va meva berishning mavjudligi o'simlikning yangi tuproq va iqlim sharoitlariga moslashishining va introduksiya muvaffaqiyatining eng muhim belgisidir. Tadqiqot obyektlarining sutkalik va mavsumiy gullash maromini o'rganishda A.N. Ponamarev (1960), R.E. Levina

(1981), O.A. Ashurmetov va H.Q. Qarshiboyev (2008) metodlaridan foydalanildi. Olib borilgan fenologik kuzatuvlar davomida *Cotoneaster dammeri* da gullash fazasining boshida (10.04.23) bir sutka davomida bir tup o‘simlikda 21 ta gul ochilganligi kuzatildi. Yoppasiga (yalpi) gullash fazasida (20.04.) bir sutka davomida bir tup o‘simlikda 75-77 dona gul ochilganligi kuzatildi. Toshkent shahri Forumlar saroyi old maydonida yoppasiga gullash bosqichida 63-65 ta gul ochilganligi qayd etildi. Gullash fazasining tugashida (3.05) esa bir tup o‘simlikda 17 donagacha gul ochilganligi qayd etildi (6-rasm).



6-rasm. *Cotoneaster dammeri* ning sutkalik gullash dinamikasi


O‘simlik gullarining sutka davomida eng ko‘p ochilish vaqti aprel oyining ikkinchi o‘n kunligida soat 10<sup>00</sup> dan 16<sup>00</sup> gacha kuzatilib, u sutka davomida ochiladigan gullarning 67% iga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda havoning harorati +25 +32 °C, nisbiy namligi esa 25-45% ni tashkil etdi. Tadqiqot obyektlari hisoblangan *Cotoneaster horizontalis* hamda *Cotoneaster adpressus* turlarining ham gullash maromi yuqoridagi tur kabi olib borildi (7-rasm).



7-rasm. *Cotoneaster dammeri* ning mavsumiy gullash dinamikasi

*Weigela florida* f. *Bristol ruby* da g'unchalash davrining boshlanishi, aprel oyining birinchi va ikkinchi dekadasiga (2022-2023) to'g'ri keldi. Gullash davrining boshlanishi aprel oyining ikkinchi o'n kunligida kuzatildi, bu vaqtda o'simlik balandligi 85-90 sm ga yetdi. *Weigela florida* f. *Bristol ruby* da g'unchalash, gullash fazalari ob-havo sharoitiga qarab 31-43-kunni tashkil etdi. Har bir o'simlikning poyasida birinchi tartibli novdalar soni 5-7 ta, ikkinchi tartibli novdalar 2-4 tadan hosil bo'lganligi kuzatildi. Qo'ng'iroq shaklidagi gullar o'lchami 5 sm atrofida, 5-6 donadan bo'lib shingilda joylashgan, pastki qismida bir-biriga bog'langan yoki ajratilgan 5 ta gulbargga ega. Gul ichida joylashgan changchilari sariq rangda.

2022-2023-yillarda *Weigela florida* f. *Bristol ruby* da gullash fazasining boshida bir sutka davomida bir tup o'simlikda 50-55 dona gul, yoppasiga (yalpi) gullash fazasida esa bir sutka davomida bir tup o'simlikda 70 dona gul ochilganligi kuzatildi. M. Ulug'bek tumani Darxon ko'chasida olib borilgan fenologik kuzatuvlarda bir tup o'simlikda yalpi gullash bosqichida 63 dona gul ochilganligi qayd etildi. Gullash fazasining yakunida esa bir tup o'simlikda ochilgan gullar soni 10-15 tani tashkil etdi. O'simlik gullarining bir sutka davomida eng ko'p ochilish vaqti aprel oyining uchinchi o'n kunligida soat 10<sup>00</sup> dan 16<sup>00</sup> gacha kuzatildi va u sutka davomida ochiladigan gullarning 70% iga to'g'ri kelishi aniqlandi (8, 9-rasmlar).




**8-rasm.** *Weigela florida* f. *Bristol ruby* formasining sutkalik gullash dinamikasi

Bu vaqtda havoning harorati +25 +32 °C, nisbiy namligi esa 25-45% ni tashkil etdi. Soat 16<sup>00</sup> dan 18<sup>00</sup> gacha kam miqdorda gullar ochildi, 18<sup>00</sup> dan keyin gullash kuzatilmadi. Gullari kechki payt yopildi. O'simliklarda yoshining ortishi bilan ikkinchi va uchinchi tartib novdalar sonining ko'payganligi, gullar soni hamda gullash davomiyligi uzayganligi qayd etildi.


Havo haroratining 3-4 °C ga pasayishi va nisbiy namlikning ko'tarilishi ochilgan gullar sonining kamayishiga sabab bo'ldi. Nisbatan vaqtliroq gullagan vaqti 15-aprelda, nisbatan kech gullagan vaqti esa 22-aprelga to'g'ri keldi. Gullash bosqichining eng erta tugagan vaqti 18-mayda, eng kech tugagan vaqti esa 23-

mayda kuzatildi. Gullash davomiyligi o‘rtacha 26-30 kunni (2022-2023-yy. davomida) tashkil etdi.



**9-rasm.** *Weigela florida* f. *Bristol ruby* ning mavsumiy gullash dinamikasi

O‘simlikda urug‘ hosil bo‘lishi kuzatilmadi. Tadqiqot obyekti bo‘lgan boshqa o‘simliklarda ham kuzatuvlar xuddi shu tartibda olib borildi (10-rasm).



**10-rasm.** Tadqiqot obyektlari gullash fazasida

Mazkur bobning “Tadqiqot obyektlarining introduksiya sharoitidagi qiyosiy tahlili” deb nomlangan uchinchi bo‘limida tadqiqot obyektlarining vegetatsiya davri davomiyligi, tuproq unumdorligiga bo‘lgan talabi, gullash davrining davomiyligi va o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy tahlili haqida ma’lumotlar keltirilgan. Natijada, introduksiya sharoitida tadqiqot obyektlari vegetatsiyasini tabiiy hududiga nisbatan o‘rtacha 25-28 kun erta boshlashi, tuproq unumdorligiga bo‘lgan talabi turlicha bo‘lsa-da, ular Botanika bog‘ining tipik bo‘z tuproqlariga yaxshi moslasha olganligi, faqatgina tuproq muhitiga bo‘lgan talabiga ko‘ra *Hydrangea macrophylla* da morfologik o‘zgarishlar yuz berganligi aniqlandi. Gullash davri davomiyligi esa tabiiy hududiga nisbatan o‘rtacha 10-15 kun ko‘proq davom etishi, o‘shishi va rivojlanishi bo‘yicha 5 ta tur va 3 ta formada vatanidagi o‘shish ko‘rsatkichlariga yaqin, 1 ta tur va 3 formada esa tez o‘sovchi turlar guruhiga mansub ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Zamonaviy assortimentlarning introduksiyasi hamda manzaraliligini baholash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobining birinchi “Manzarali butalarni introduksion baholash” nomli bo‘limida introdutsentlarni introduksion baholash P.I. Lapin, S.V. Sidneva (1973), N.I. Shtonda (2016) metodlaridan foydalanilgan holda, 100-balli baholash usuli yordamida aniqlandi va tahlil qilindi. Mazkur metodlarga ko‘ra, daraxt va butalarning muvaffaqiyatini baholashda 9 ta ko‘rsatkichlar asosida, 2 dan 7 tagacha bo‘lgan mezonlar asos qilib olingan. Introdutsentlar 100 ballik shkala asosida 6 ta guruhga ajratilgan: I – to‘liq istiqbolli (91-100), II – istiqbolli (76-90), III – kamroq istiqbolli (61-75), IV – kam istiqbolli (41-60), V – istiqbolli emas (21-40), VI – umuman yaroqsiz (5-20). Tadqiqot obyektlari hisoblangan 6 ta tur va 6 ta formalarni introduksiya muvaffaqiyatini baholash shkalasiga asosan, manzarali turlardan *Cotoneaster horizontalis*, *Symphoricarpos dorenbosii* lar eng yuqori 95 balldan to‘plab, to‘liq istiqbolli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu ikki tur barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha maksimal ballga ega bo‘ldi. Shuningdek, *Spiraea japonica*, *Cotoneaster adpressus*, *Cotoneaster dammeri* turlari 85-88 ball to‘plab, istiqbolli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Turlardan faqatgina *Hydrangea macrophylla* 54 ballga ega bo‘lib, kam istiqbolli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu tur 1, 2, 3, 5, 8 (novdalarining yog‘ochlanishi, sovuqqa chidamliligi, issiqqa chidamliligi, o‘simlik shaklining saqlanishi, generativ rivojlanish qobiliyati) – bandlardagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha past ballga ega bo‘lganligi sababli ham kam istiqbolli ekanligi kuzatildi.

Manzarali formalarni baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yuqori ballga *Deutzia scabra* f. *Plena* (88), *Hibiscus syriacus* f. *Duc de Brabant* 87 ballga ega bo‘lib, 2, 3, 4, 5, 6,7-bandlar (sovuqqa chidamliligi, issiqqa chidamliligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi, o‘simlik shaklining (gabitus) saqlanishi, novdalanish qobiliyati, novdaning balandlikka o‘shish qobiliyati) dagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha yaxshi natijaga ega bo‘lishi – ularning istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi. Qolgan 4 ta forma *Viburnum tinus* f. *Stricta* (76), *Weigela florida* f. *Bristol ruby* (76), *Spiraea prunifolia* f. *Plena* (83), *Physocarpus opulifolia* f. *Diabolo* (82) lar 76-83 ballgacha to‘plab, istiqbolli ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Mazkur bobning “Zamonaviy assortimentning manzaraliligini baholash” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida introduksiya qilingan o‘simliklarning manzaralilik xususiyatlari baholangan. Manzaralilik birinchi navbatda, gullashning davomiyligi va darajasi, gullarning rangi va hajmi, jozibadorligi va shoxlardagi mevalarni ushlab turish muddati kabilar bilan baholanadi. Olib borilgan tadqiqot ishida o‘simliklarning manzaralilik xususiyatlarini baholash N.I. Shtonda, X.J. Axmedova, A.I. Xalmurzayeva (2013) larning metodlaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Mazkur metodga ko‘ra, 11 ta ko‘rsatkichlar asosida 2-3 tagacha mezonlar olingan bo‘lib, introdutsentlar 100 ballik shkala asosida 3 ta guruhga ajratilgan: yuqori manzarali (59-100 ball); 2. manzarali (34-58 ball); 3. kam manzarali (34 ball). Tadqiqot obyektlarining manzaraliligini baholashdan quyidagicha natijalar olindi: formalardan – *Viburnum tinus* f. *Stricta* – 83, *Hibiscus syriacus* f. *Duc de Brabant* – 81, *Weigela florida* f. *Bristol ruby* – 75, *Deutzia scabra* f. *Plena* – 73, *Spiraea prunifolia* f. *Plena* – 69, *Physocarpus opulifolius* f. *Diabolo* – 65 ball; turlardan esa: *Symphoricarpos dorenbosii* – 79, *Cotoneaster horizontalis* – 75, *Cotoneaster dammeri* – 73, *Cotoneaster adpressus* – 68, *Hydrangea macrophylla* – 65, *Spiraea japonica* – 61 ball bilan baholandi. Natijalarga ko‘ra, tadqiqot ishi uchun tanlangan obyektlarning barchasi yuqori manzarali (59-100 ball) deb baholandi.

Mazkur bobning “Ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish uchun tavsiyalar” nomli uchinchi bo‘limida introduksiya qilingan o‘simliklarni vegetativ ko‘paytirish, samarali stimulyatorlar va ulardan to‘g‘ri foydalanish, introdutsentlarning biologik xususiyatlarini, hududning tuproq-iqlim sharoitini e‘tiborga olgan holda to‘g‘ri joylashtirish, parvarishlash, shakl berish to‘g‘risida tavsiyalar berilgan. Ko‘kalamzorlashtirishda manzarali butalardan foydalanishda shu hududning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib assortiment tanlash, o‘simliklarning fenologik fazalarini, ya‘ni mavsumiy o‘zgarishlarini aniq bilish, gullash davri va davomiyligi bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash – ularning manzaraliligini ko‘rsatib berishda alohida ahamiyatga ega.

## XULOSALAR

**“Yuqori manzarali butalarni Toshkent Botanika bog‘i sharoitida introduksiyasi”** mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor manzarali butalarning 8 turi va 14 formalarining introduksiyasi bo‘yicha tahlili olib borilib, manzaraliligi baholandi. Ajratib olingan 6 tur va 6 formalarning yuqori manzarali ekanligi isbotlandi. Mavsumiy rivojlanish ritmlarini o‘rganish ularni 3 fenoritmotipga (doim yashil, bahorgi-yozgi-kuzgi-qishki yashil, bahorgi-yozgi-kuzgi yashil) ajratish imkonini berdi.

2. O‘rganilgan o‘simliklarning yillik o‘sish davri o‘rtacha 180-195 kuni tashkil etib, bir vegetatsiya davrida tur va formalar uchun zarur bo‘ladigan foydali haroratlar yig‘indisi +4800 +6200 °C ga teng ekanligi aniqlandi.

3. Gullash jarayonida erta gullovchi tur va formalar uchun haroratning 25 °C dan pasayishi va havo nisbiy namligining 45-50% dan ortishi, kech gullovchi tur va

formalar uchun esa havo nisbiy namligining 25-30% dan oshishi – ularda gullar ochilishining kamayishiga sabab bo‘ldi. Manzarali butalarda ochilgan gullar sonining ortib borishi – havo haroratining ko‘tarilishi (+30 +35 °C) va nisbiy namlikning pasayishi (25-28%) bilan bog‘liqligi qayd etildi.

4. Toshkent shahri sharoitida manzarali butalarning qishlash muvaffaqiyatiga asosan, kech kuz va erta qish hamda bahorgi qayta sovuq ta’sir ko‘rsatadi, bu 2019-2022-yy. ekstremal sharoitlarda tasdiqlangan. Noqulay iqlim sharoitlari 1 ta tur (*Cotoneaster horizontalis*) va 1 formada (*Spiraea prunifolia* f. *Plena*) fenoritmotipining o‘zgarishiga, ya’ni, qishda barglarining to‘kilishiga olib kelishi kuzatildi.

5. Manzarali butalarni yog‘ochlashgan qalamchalari orqali vegetativ ko‘paytirishning optimal muddati – fevral oyining III dekadasi dan mart oyining I dekadasi gacha, yashil qalamchalaridan ko‘paytirishda esa – iyun oyining III dekadasi va iyul oyining I dekadasi ekanligi, bunda Kornevin stimulyatorining samarali (90-100%) ekanligi isbotlandi. Vegetativ usulda ko‘paytirilgan manzarali butalardan ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlarida 4-6-yildan boshlab standart ko‘chatlar holida foydalanish tavsiya etiladi.

6. Tur va formalarning bioekologik xususiyatlari, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi, ularning *ex-situ* sharoitiga to‘liq moslasha olganligi – introduksiya muvaffaqiyatini ko‘rsatadi.

7. Introduksion baholash natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan barcha tur va fomalar (*Hydrangea macrophylla* dan tashqari) istiqbolli hisoblanib, ulardan Respublikamizda ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalanish tavsiya etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.В.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

---

**ИНСТИТУТ БОТАНИКИ**

**ХАМРАЕВА ДИЛОВАР АХАДОВНА**

**ИНТРОДУКЦИЯ ВЫСОКОДЕКОРАТИВНЫХ КУСТАРНИКОВ В  
УСЛОВИЯХ ТАШКЕНТСКОГО БОТАНИЧЕСКОГО САДА**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/B975.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.botany.uz](http://www.botany.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([ziyonet.uz](http://ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Темиров Элдор Эргашбоевич  
доктор философии биологических наук (PhD),  
старший научный сотрудник

**Официальные оппоненты:** Рахимова Ташханим  
доктор биологических наук, профессор  
Ёзиев Лутфулла Хабибуллаевич  
доктор биологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Защита диссертации состоится “7” марта 2025 года в 13<sup>30</sup> часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-79-38, e-mail: [botany@academy.uz](mailto:botany@academy.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за №66). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан “20” февраля 2025 года.  
(реестр протокола рассылки №6 от “20” февраля 2025 года).



**К.Ш. Тожибаев**  
Председатель Научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.б.н., академик

**У.Х. Кодиров**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
PhD, старший научный сотрудник

**Х.Ф. Шомуродов**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению учёных  
степеней, д.б.н., ведущий научный сотрудник

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире увеличение численности населения, в свою очередь, требует расширения населенных пунктов, широкого внедрения ландшафтного дизайна и озеленения в соответствии с городскими законами. Поэтому особую ценность представляет ассортимент высоких декоративных кустарников, которые считаются биологически устойчивыми к задымленным, шумным, сухим, холодным и высокотемпературным условиям города. Определение устойчивости высокодекоративных кустарников к факторам внешней среды, оценка декоративности и интродукции, а также разработка методов вегетативного размножения в различных условиях имеет важное научно-практическое значение.

В мире при озеленении населенных пунктов и расширении зеленых насаждений особое внимание уделяется перспективным высокодекоративным деревьям и кустарникам, которые считаются устойчивыми к городским условиям. В связи с этим, создание новых перспективных декоративных форм растений, исследование их биоэкологических особенностей в различных климатических условиях с изучением устойчивости их в озеленении, высокой декоративности, лекарственности, также устойчивости к факторам внешней среды имеет важное научное значение.

В настоящее время в нашей республике особое внимание уделяется декоративным формам растений, которые имеют высокую декоративность в озеленении. В связи с этим декоративные виды и формы представителей таких семейств, как *Adoxaceae*, *Caprifoliaceae*, *Hydrangeaceae*, *Malvaceae*, *Rosaceae* интродуцированы в нашу страну **с целью** изучения их роста и развития, устойчивости к засухе, жаре, холоду от внешних факторов окружающей среды; разработки эффективных методов размножения и выращивания; исследования биоэкологических особенностей и оценки декоративности в условиях интродукции, устойчивости к болезням и вредителям, и достигнуты важные научно-практические результаты. Большое внимание уделяется озеленению и благоустройству, в частности, уделяется внимание и увеличению биоразнообразия за счет расширения ассортимента перспективных растений. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи по “превращению города Ташкента в комфортную для населения, экологически чистую зону, имеющую все условия для проживания, доведение уровня его озеленения до 30 процентов”<sup>1</sup>. В этом плане важное научно-практическое значение имеет акклиматизированные в нашу республику декоративные виды и формы, относящиеся к семействам *Adoxaceae*, *Caprifoliaceae*, *Hydrangeaceae*, *Rosaceae* и *Malvaceae*, изучение влияния на них факторов внешней среды, перспективы

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.

